**SIRDARYO VILOYATI YANGIYER SHAHAR HOKIMI**
**Q A R O R I**

2022 - yil 3 - noyabr 265-9-132-Q/22 Yangiyer shahar hokimligi

# Yangiyer shahar hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida sun’iy notekislik, yuqori nur qaytaruvchi (Diyotli) yo’l belgilari hamda piyodalar uchun tugmali svetofor o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2022 yil 12 aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlarida hamda “2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari-avtomobil yo‘llari infaratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “piyoda-jamoat transport-velotransport-avtotransport” ustivorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida qaror qilaman:

1. Hududdagi aholining murojaati va Yangiyer shahar ichki ishlar bo‘limining 2022-yil 21-oktyabrdagi 32/712-sonli hamda T.Malik MFYning 21-oktyabrdagi 32/712-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Shahar hududidagi “T.Malik” mahalllasi hududidagi Paxtakor, Yangi asr, Baxor, Mustaqillik,Yashnar hamda A.Navoiy ko‘chasigi yuqori nur qaytaruvchi (Diyotli) yo’l belgilari, piyodalar uchun tugmali svetofor hamda 4-sonli umumta’lim maktabiga piyodalar o‘tish joyiga O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3403-2019 talablari asosida ishlab chiqilgan sun’iy notekislik hamda piyodalar tugmali svetofori o‘rnatish tashkil etilsin.

3. Yangiyer shahar ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (B.Xudoybergenov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Mustafakulov) hamda Xovos tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi boshlig‘i (Sh.Sherqulov), T.Malik MFY raisi (G‘.Baratov) bilan birgalikda sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish hamda piyodalar uchun maxsus tugmali svetoforlarini o‘rnatilsin.

4. Mazkur qaror Yangiyer shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Mirzayev zimmasiga yuklatilsin.

**Shahar hokimi** **O.Nosirov**